

O'QUVCHILAR TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Berdiqulova Munira Muhiddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10613012>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan fikr va mulohazalar, xususan milliy o'zlikni anglash, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, nazariy asoslar va tahlillar keltirib o'tilgan. Shuningdek o'quvchi yoshlarning tarixiy bilimlari tahlil qilinib, ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tarixiy tafakkur, tarixiy ong, milliy qadriyatlar, rivojlanish bosqichlari, ta'lim islohatlari, ilg'or texnologiyalar.

FORMATION OF STUDENTS' HISTORICAL THINKING

Abstract. In this scientific article, the thoughts and opinions aimed at developing the student's historical thinking, in particular, the understanding of national identity, universal and national values, theoretical bases and analyzes, suggestion and recommendations were given on the formation of historical thinking in the process of education and upbringing.

Key words: Historical thinking, historical consciousness, stages of development of national values, educational forms, advanced technologies.

ФОРМИРОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной научной статье представлены мысли и мнения, направленные на развитие исторического мышления студентов, в частности, понимания национальной идентичности, общечеловеческих и национальных ценностей, теоретических основ и анализов. Также были проанализированы исторические знания студентов, даны предложения и рекомендации по формированию исторического мышления в процессе обучения и воспитания.

Ключевые слова: Историческое мышление, историческое сознание, этапы развития национальных ценностей, образовательные реформы, передовые технологии.

Insoniyat yaralibdiki ma'lum bir tarixga asoslanadi. Tarixsiz kelajak ham mavjud emas. Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar yurti bo'lib kelgan. Avvalambor yurtimizda tarixiy tafakkurni shakllantirish uchun qilinayotgan ishlar, olib borilayotgan islohatlar beqiyos. Shu o'rinda tarixga nazar soladigan bo'lsak Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Hakim Termiziy kabi allomalarimiz ilm-fan rivoji uchun o'zining misli ko'rinmas asarlarini yozib qoldirgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki ilm-fan rivoji uchun harakat qilgan buyuk shaxslar jadidchilik harakati a'zolari bo'lgan. Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi bir qator jadidlarimiz istiqbolli kelajagimiz uchun kurash olib borganlar. O'sha davrda mustamlakachilik zulmining asosiy sabablari bu zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bexabarlik deb qaradilar. Shu bois ham ular barcha muammolar yechimi ta'lim islohati deb hisobladilar va yosh avlodga ta'lim tarbiya berishga asosiy e'tiborlarini berdilar. Ayni vaqtda ular yangi maktablar, kutubxonalar ochdilar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari nashr etdilar va ommaga tadbiq qildilar. Yoshlarni ilm-fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida turli xil ilm-fan kengashlarini ham olib bordilar. Shu asnodan ular ilm-fanga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shdilar.

Dunyodagi o'rganilishi lozim bo'lgan, kashf qilinishi kerak bo'lgan barcha narsalarning ildizi tarix bilan chambarchas bog'liq. Misol tariqasida matematika fanini oladigan bo'lsak undagi ilk bilimlarni o'zlashtirmasdan turib, murakkab masalalarni bajarishni uddasidan chiqib bo'lmaydi. Huddi shuning uchun ham tarix fanining o'ziga tegishli bo'lgan bilimlarini har bir yosh avlod ongiga va albatta boshlang'ich egallanayotgan bilimlari qatoriga qo'shish lozim. Nafaqat insoniyat tarixi balki, har qanday yaratilayotgan yangi kashfiyotlar tarixi ham juda muhim. Biz yoshlar tarix fanini o'rganar ekanmiz, ushbu fanni oddiy bir fan sifatida emas balki o'z o'tmishimizga bo'lgan qiziqish sifatida o'rganmog'imiz lozim.

Hozirgi kunda yetishib chiqayotgan yosh pedagoglarimiz ham tarix fanini chuqurroq o'rganishi muhimdir. Ushbu sohaning o'z bilim beruvchilari uchun ham individual ta'lim berish usullarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy yondashuvga ega malakali pedagoglarimiz tomonidan dars olayotgan yosh o'quvchilarimiz aniq fanlar qatorida tarix fanidan ham o'z bilimlarini oshirib borishlari kerak. O'z fikrini erkin namoyon qila oladigan, o'quvchilarning tarixga bo'lgan qiziqishlarini oshira oladigan malakali o'qituvchilar har qanday o'quvchining tarixiy tafakkurining oshishiga o'z hissasini qo'shish bilan bir qatorda, uning yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladi albatta. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlardan kelib chiqib, dars jarayonida o'quvchilar tafakkurini yanada rivojlantirish maqsadida ilg'or innavatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Inteketual ta'lim resurslari ham bundan mustasno emas. Matnli materiallar, video materiallar, audio materiallar va shu kabilar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston inson sha'ni, qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va farovon, tinchlik hukum surgan ilg'or texnologiyalar davrida o'zining misli ko'rinmas ta'lim islohatlarini ilgari surib rivojlanayotgan davlatdir. Ayni kunda o'quvchilar tarixiy tafakkurini yanada rivojlantirish uchun ta'limda izchil o'zgarishlar bo'lmoqda, yangiliklar kiritilmoqda.

Milliy manaviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi paytda bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas.

Tarixga oid ilmiy-tadqiqot ishlari, asosan, bayonchilik publisistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o'tmishdagi ko'pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda.

Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shururiga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi.

Ma'lumki el-yurtimiz o'zining qadimiy o'tmishi davomida qancha-qancha unitilmas voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan. Lekin bir haqiqatni ta'kidlash kerakki, Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon -u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo'ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o'tgan murakkab tarixiy yo'lining uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur.

O'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi.

Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekiston tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim.

O'zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirish, xorijda va yurtimizda uni o'rganish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish dolzarb vazifadir.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlik darajasini oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish zarur.

Albatta keying yillarda "Besh muhim tashabbus" doirasida bu yo'nalishda ko'p ishlarni amalga oshirdik. Lekin bugun ularni yangi bosqichga ko'tarishni vaziyatning o'zi talab etmoqda.

O'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish uchun tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalarini ham o'rgatib borishimiz lozim. Tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalarining ayrim nazariy jihatlariga fikrimizni qaratishimiz kerak bo'ladi. Tarix insoniyat egallagan bilimlardan biri sifatida ijtimoiy-hayotning turli jabhalarini qamrab oladi. Tarix insoniyat hayotining umumiy tafsilotidir. Agar tarixni keng ma'noda tushunadigan bo'lsak, tarix tadqiqot va izlanishlar doirasi cheksizdir. Ammo tarixda alohida shaxs tarixiy vaziyatga ko'rinadi va sezilarli ta'sir eta olmaydi.

Diniy nuqtai nazardan qaraganda, tarixiy tarqiyot, aynan tarixdan tashqarida yotadigan, ammo unga hal qiladigan darajada ta'sir etkazadigan kuchlarga bog'liq. Ammo ko'pgina hollarda ijtimoiy o'zgarishlarning ibtido sababchisi sifatida, ba'zida buyuk shaxs, ba'zida amorf massa, "braun harakati" ko'rinishlarida inson tarixiy harakatning dalili bo'lib keldi. Tarix fan sifatida alohida shaxsning ham, umuman jamiyatning ham ma'naviy rivojlanishining ajralmas unsure hisoblanadi.

Tarix nafaqat insoniyat faoliyati va merosi, balki bu insoniyatning muayyan vaqt oralig'idagi harakatlari va voqealar majmuidir. Tarix shu bilan birga vaqt uyg'unligidir, u faqat vaqtda mavjuddir. Tarixiy ongda aks etgan tarixiy taraqqiyot, uning ziddiyatlari ala-quroq ko'rinishi insoniyat tafakkurini doimo band qilib kelgan.

Tarixiy ong tushunchasi tarix falsafasining bosh mavzusidir. Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo'lni bosib o'tgan o'z genezisiga ega. Tarixiy ong "Afrotida" dengiz ko'pigidan paydo bo'lganidek" birdaniga paydo bo'lgan emas. Uning shakllanishi insoniyat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda boradi. Ijtimoiy ong, siyosiy mafkura, huquqiy ong ahloq, din, fan, san'at falsafa shakllarida mavjud bo'ladi. Lekin tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi.

Tarixiy ongning rivojlanishi qadimgi, o'rta asrlar bosqichlarida uni nazariy tahlili uchun ilmiy asos unsurlari paydo bo'ldi, bu davrda ilmiy nazariy jihatdan tarixiy ongni tahlil qilish tarixni fan sifatida teologik mafkura ta'siridan xalos bo'lishi bilan dastlabki qadamlar qo'yildi.

Shuningdek biz o'quvchi yoshlarning tarixiy bilimlarini yanada oshirish uchun milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf odatlarimiz haqida ularga tushuncha berishimiz, ularning ongida tariximizga bo'lgan muhabbatni oshirishimiz lozim. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib,

his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini — oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, ta'lim islohotlari kundan-kunga yangilanib rivoj topib bormoqda. Yoshlarga berilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, biz yoshlar ham o'z tarixiy tafakkurimizni, tarixiy madaniyatimizni yanada oshirib borishimiz lozim. Yangi O'zbekistonning yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatlardan keng foydalanib, o'z vatanimizning butun dunyo oldidagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishga, uning mavqeini ko'tarishga intilmog'imiz lozim.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev .Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent:"O'zbekiston" nashriyoti, 2022.- 440 bet.
2. R. Raxmonov, F. Fayziyev. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T.: -O'zbekiston. 2008. 18-bet.
3. История Узбекистана. Под.ред. В.Л.Гентшке и др. -Т.: Университет, 2002, 4- стр.
4. 4.Tulenov J.T., Gafurov E. "Falsafa. T. "O'qituvchi " 1991-y. 60-bet.
5. Jaloliddin «Ko'kaldosh» o'rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi.